

MAHALLIY BYUDJETLARNING DAROMAD MANBALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI TAHLILI

Tog'ayniyazov Shoxzodbek Ural o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya bozori va sug'urta ishi" kafedrasasi assistenti

email: sh.togayniyazov@tsue.uz

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 8

DOI:https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss8/a15

ABSTRACT

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston respublikasi mahalliy byudjetlarning daromad manbalari va ularni shakllantirish amaliyoti tahlili, byudjet tizimi byudjetlari o'tasida daromadlarning ulushi, mahalliy byudjetning daromad manbalariga to'siq bo'layotgan holatlar va ularni bartaraf etgan holatda mahalliy byudjetga kelib tushayotgan mablag'larning hajmini kengaytirish, potensial soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlari bergan holda mahalliy byudjetga kelib tushayotgan daromadlarning hajmini kengaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida muallif tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan va natijalarga erishilgan.

KEYWORDS

Byudjet tizimi, mahalliy soliqlar, mahalliy budget, mol-mulk solig'i, soliq sohasini liberallashtirish, davlat bojlar, soliq imtiyozlari, penyalar va jarimalar, yagona ijtimoiy to'lov

Kirish (Introduction/Vvedeniye).

Iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlanirish, xalq manfaatlarini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalashga xizmat qilayotgan soliq qonunchiligining asosiy manbasi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 11-bob 51-moddasida "Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburidirlar" deb ta'kidlangan[1]. Shu munosabat bilan mamlakat fuqarolari o'zlariga davlat tomonidan taqqid etilayotgan ijtimoiy ne'matlar uzlusizligini ta'minlanishiga erishishda o'zlarining qonun oldidagi burchlarini mas'uliyat bilan his etib borishlari muhim hisoblanadi.

Konstitutsiyaning 100-moddasi 3-bandida, mahalliy davlat hokimiyati organlari ixtiyoriga "Mahalliy byudjetlarni shakllantirish va uni ijro etish mahalliy soliqlar va yig'imlarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish vazifasi belgilagan. Shu bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet sohasidagi, soliqlar va yig'imlar joriy etish borasidagi faoliyatining konstitutsiyiy asosi o'rnatilgan[2]. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuning 7-moddasida Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining iqtisodiy asosini tashkil eltvchi mulk shakllari belgilangan bo'lib, unga muvofiq xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi faoliyat iqtisodiy asosini ma'muriy-hududiy tuzilmalarning davlat mulki (kommunal mulk) hamda viloyat, tuman va shaharda mavjud bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xizmat qiruvchi boshqa mulk tashkil etadi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimlari mutlaq O'zbekiston Respublikasi mulkka bo'lgan davlat mulki obyektlariga nisbatan ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni samarali joylashtirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza etish, aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida nazoratni amalga oshiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Davlat byudjeti daromadlarini tashkil etishning nazariyi va amaliy jihatlarini o'rGANIB chiqqan O'zbek iqtisodchi olimlari M.I.Almardonov,

T.S.Malikov,O.O.Olimjonov,Q.A.Yahyoyev,N.R.Qo'ziyeva
va N.H.Haydarovlarning ilmiy ishlarida o'rGANILGAN.[3]

Mamlakatimizda Davlat byudjeti daromadlarini to'liqligini ta'minlashga tegishli bo'lgan masalalarning ba'zi jihatlari I.E.Jalolov, M.M.Kamilov, Sh.A.Toshmatov va B.Q.Qodirovlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, I.E.Jalolovning ilmiy tadqiqotchi bilvosita soliqqa tortishni takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan bo'lsa[4], M.M.Kamilovning ilmiy izlanishlari qo'shilgan qiymat solig'in undirish mechanizmi va uni takomillashtirish yo'llariga qaratilgan.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi.

Olingan natijalar (Results/Результаты).

Olib borilgan tahlillar natijasida mahalliy byudjetlarning daromad manbalari va ularni shakllantirish ya'ni, soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, yer solig'i va yagona yer solig'i bo'yicha soliqlarni to'lash muddatlarini uzaytirish vakolatini berish yo'llari asoslab ko'rsatib berilgan.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi davlat mulkini chegaralash natijasida o'ziga berilgan yoki qonunlarga muvofiq, o'zi sotib olgan ob'ektlarga nisbatan mulkdor vakolatlarini to'liq amalga oshiradi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining mol-mulk, mahalliy byudjetlarning mablag'lari va byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari viloyat, tuman, shahar mulkidir. Viloyat, tuman, shahar ahamiyatiga ega bo'lgan muhandislik infrastrukturasi ob'ektlari va boshqa ob'ektlar, korxona va birlashmalar, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, fan va madaniyat muassasalari, viloyat, tuman, shahar mablag'i hisobidan tashkil etilgan yoki sotib olingan, shuningdek ulushbay asoslarda tashkil etilgan yoki sotib olingan

Maxsus son 2024

yoxud xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashiga boshqa manbalardan bepul berilgan qimmatli qog'ozlar va moliya aktivlari viloyat, tuman, shahar mulki bo'lishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi byudjetdan tashqari jamg'armalar tashkil etishi mumkin, ularga quyidagilar kiritiladi:

fuqarolar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning, bundan byudjet tashkilotlari mustasno, ixtiyoriy badallari va hayriyalari;

quonularda taqiqlanmagan boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar.

Mahalliy davlat hokimiyyati organlari viloyat, tuman, shahar byudjetdan tashqari jamg'armalarining mablag'ları shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turadi, olib qo'yildi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi va hokimning qaroriga ko'ra sarflanadi.

Soliqlarning umum davlat va mahalliy soliqlarga bo'linishi xukumat idoralarining respublika Hukumat va mahalliy hukumatlarga bo'linish xususiyatidan kelib chiqadi. Har bir hokimiyyat idoralari o'zlarining bajaradigan muhim vazifalaridan kelib chiqib, o'z byudjetiga va uni ta'minlaydigan soliqlarga ega bo'lishini taqozo etadi.

Ilmiy izlanishda soliqlarni byudjet tizimi byudjetlariga biriktirilishida aholi soni, aholi zichligi va soliq to'lovchilar sonidan kelib chiqib amalga oshirilishi aniqlandi. Qayd etib o'tilgan ushbu mezonlar asosida quyi turuvchi byudjetlarning daromadlari xarajatlarini qoplashga etmaydigan holatlarda, shuningdek, respublika bo'yicha davlat tomonidan ijtimoiy ne'matlarning bir xil ta'minlashga erishish nuqtai nazaridan byudjetlararo mutanosiblikni ta'minlash dastaklaridan foydalaniлади. Dunyo amaliyotida bir byudjet bo'g'inidan ikkinchi byudjet bo'g'iniga mablag'larni o'tkazishda ikki xil varianti mavjud:

- byudjet tizimi byudjetlari o'rtaida daromadlarni ulushli bo'lism;
- grantlar tizimi.

Mazkur variantlar haqida ilmiy ishning keyingi boblarida batafsil to'xtalamiz.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliшlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida quyi turuvchi byudjetlarning yuqori turuvchi byudjetlarga qaramligini pasaytirish vazifasidan kelib chiqib, mahalliy byudjetlarning Respublikada mahalliy soliqlar va yig'imlar iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida qayta ko'rib chiqildi. Mahalliy byudjetlar soliqli va boshqa daromadlari aniq belgilandi (2.2-jadvalga qarang).[5]

2.2-jadval

Mahalliy byudjetlar daromad manbalari[4]

Tuman mahalliy byudjeti	Qoraqalpog'iston Respublika va viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari
1. Jismoniy shaxslar olimadigan mol-mulk solig'; 2. Jismoniy shaxslardan olimadigan er solig'; 3. Jismoniy shaxslarning mol-mulkini jiraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklaratsiyasi asosan to'lanadigan hamda yakkta tartibagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'; 4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan soliq munisipal; 5. Qurilish materiallari bo'yicha er qar'idan foydalanganlik uchun soliq, bundan tsemen xom ashysi va tsement ishlab chiqarishda foydalanalidigan ohatkosh mustasno.	1. Yuridik shaxslardan olimadigan mol-mulk solig'; 2. Yuridik shaxslardan olimadigan er solig'; 3. Elektr stansiyalari tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 4. Yakuniy istek mohollalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz rezervatsiya qilishdagi aktisiz solig'; 5. Aylamnadan soliq; 6. Davlat bojlar (patent va litsenziya bermanlik uchun bojardan tashqari); 7. Davlat byudjetiga undiriladigan jarimlar; 8. Ayrim tovarlarning chakana savosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig'imlar; 9. Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona yig'imiralarida tashqari); 10. Avtovtor transport vasitalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlari ro'yxatdan o'tkazish chog'ida avtovtor egalari (foydalunuvchilar) tomonidan to'lanadigan yig'imlar; 11. Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining aktivlari bo'yicha ajratmalar va dividendlar; 12. Davlat aktivlarini ijarraga berish va xususiyatishidan tushadigan daromadlar; 13. Mobb'alloqa xizmati va alkogol mahuholotlari, shu jumladan pivo uchun aktisz solig'idan tushumlar tegishli ravishda 2019 yil 1 iyul holatiga ko'r Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar aholisining respublika aholisidagi ulushiga muvofiq.

Mahalliy byudjetlar soliqli tushumlari belgilab qo'yildi. Soliqlarni undirish bilan birga, soliq to'lovchilarni rag'battantirish, o'z hududi bo'yicha mahalliy davlat hokimiyyati organlari vakolatlarni taqdim etish ham muhim hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha imtiyozlarni taqdim etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi Qarori qabul qilingan edi. Lekin ushbu hujjatda belgilangan normalar amaliyotda o'z aksini topmadni. Sababi, soliqlar bo'yicha imtiyozlар quyidagi hollarda berilishi belgilangan.

Agar:

hududning byudjeti yuqori turuvchi byudjetdan dotatsiya olmaganda va soliqlar bo'yicha imtiyozlар berish tegishli byudjetning dotatsiya olishiga sabab bo'lmaganda;

hududning mahalliy byudjeti xarajatlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining alohida qarorlarida nazarda tutilgan tadbirlar moliyalashtirilishi to'liq ta'minlanganda;


muayyan soliq bo'yicha imtiyozlар berish natijasida tegishli byudjetga tushum tushmasligi mumkin bo'lgan daromadlar (yo'qotishlar) summasi boshqa manbalar bo'yicha qo'shimcha tushumlar hisobiga qoplangunda;

mol-mulk solig'i, er solig'i, yagona er solig'i bo'yicha imtiyozlар berilgan ob'ektlar ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda hamda er uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan er uchastkalari maydoni doirasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilganda;

soliq to'lovchida byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik mavjud bo'lmaganda.

Mahalliy iqtisodchi olima N.B. Ashurova ilmiy tadqiqotlarida mahalliy soliqlar bo'yicha berilayotgan imtiyozlarning korxonada kutilayotgan samarasini hisoblash uslubi ishlab chiqilgan[6].

Ilmiy izlanishda mazkur mexanizm, ya'ni mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan mahalliy soliqlar bo'yicha imtiyoz taqdim etish holati tahlil qilindi:



2.1-rasm. Mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan soliq imtiyozlarni taqdim etish holati, ming so'm hisobida[7]

2.1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2012 yilda 1 416 929 ming so'm miqdorli imtiyozlар taqdim etilgan bo'lsa, 2018 yilda ushbu imtiyozlар miqdori 2 723 160,7 ming so'mni tashkil qilgan. Lekin 2.1-rasm ma'lumotlaridan ko'rindaniki, 2013-2017 yillarda soliq imtiyozlarni taqdim etish juda sust bo'lgan. 2019 yilda soliq imtiyozlар umuman taqdim etilmagan.

Xulosa qilib aytganda, tahlillarning ko'rsatishicha, qayd etilgan imtiyozlар soliq to'lovchilar yoki hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojanishida sezilarlar ta'sirga ega bo'lmagan. Shu boisdan, ilmiy tadqiqot jarayonida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib, Moliya vazirligiga taqdim etildi. Ya'ni, soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, er solig'i va yagona er solig'i bo'yicha soliqlarni to'lash muddatlarini uzaytirish vakolatini berish taklif etildi. Bunda soliq muddatlarini uzaytirish:

– soliqlar, penyalar va jarimalar bo'yicha qarzdorlikning bir martalik to'lovchi yuridik shaxslar bo'lgan soliq to'lovchilarining iqtisodiy nochorlikka olib kelgan hollarda;

– soliq to'lovchining ishlab chiqarish yoki tovar va xizmatlar realizatsiyasi mavsumiy xarakterga ega bo'lgan hollarda;

– iqlim o'zgarishidan kelib chiqib, soliq to'lovchiga tabiiy ofat, texnologik falokat natijasida yuridik shaxs faoliyatni zararga kirgan hollarda[8].

Bundan tashqari hududlarda tadbirkorlik faoliyatining yillar davomida oshishi natijasida hududlardan kelib tushgan murojaatlar soni ham yildan yilga oshib ketishi ham kuzatilmoqda. Ushbu jadvalda hududlar bo'yicha kelib tushgan murojaatlar soni keltirilgan.

2.2 jadval ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda hududiy soliq organlariga jami 851483 ta murojaat kelib tushgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatgich Toshkent shaxriga 362731 ta hamda eng past ko'rsatgich esa viloyat kesimida Qoraqalpog'iston respublikasiga to'g'ri kelmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan soliq to'lovchilarga soliqlarni to'lash muddati bir oydan yigirma to'rt oygacha uzaytiridi. Bunda soliq qarzdorligining umumiyyat summasiga yoki uning bir qismiga (masalan, muayyan sanaga hisoblangan summag'a) yoki kelgusida yuzaga keladigan soliq qarzdorligiga nisbatan; bir soliq yoki soliqlarning bir nechta turlari bo'yicha uzaytirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

So'nggi paytlarda iqlim o'zgarishi natijasida ob-havoning noqulayligi ham soliq to'lovchilarga majburiyatlarni bajara olishiga xalaqit qilmoqda.

Maxsus son 2024

Nº	Hududlar nomi	Jami	Ulushi(%)
1	Oraqalpog'iston Respublikasi	6 122	0,7
2	Andijon viloyati	54 314	6,4
3	Buxoro viloyati	70 768	8,3
4	Jizzax viloyati	41 990	4,9
5	Qashqadaryo viloyati	52 734	6,2
6	Navoiy viloyati	22 921	2,7
7	Namangan viloyati	24 793	2,9
8	Samarqand viloyati	33 924	4,0
9	Surxondaryo viloyati	20 210	2,4
10	Sirdaryo viloyati	35 548	4,2
11	Toshkent viloyati	82 600	9,7
12	Farg'onha viloyati	28 293	3,3
13	Xorazm viloyati	14 033	1,6
14	Toshkent shahar	362 731	42,6
15	Hududlararo inspeksiya	502	0,1
	Jami	851 483	100,0

2.2 jadvalda. Hududlar bo'yicha kelib tushgan murojatlar soni ketirilgan[8]

Shundan kelib chiqib, soliq to'lovchi texnologik halokat yoki yengib bo'lmaydigan boshqa holatlari natijasida zarar ko'rganda, ularning soliq to'lovlarini muddatlarini uzaytirish soliqlarning ijtimoiy adolatliligi tamoyiliga mos keladi. Mazkur holatlар bo'yicha soliqlarni to'lash muddati uzaytirilishi – tabiiy ofatlar, texnologik halokat yoki yengib bo'lmaydigan kuchning boshqa holatlari natijasida soliq to'lovchiga yetkazilgan zarar qiymati to'g'risida vakolatli organning (tashkilotning) ekspert xulosasi asosida taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir.[9]

Umuman olganda mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlар doirasida mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash, ularning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash borasida chora tadbirda ularga hududidagi soliq to'lovchilarga soliqlarni to'lash muddatlarini uzaytirish vakolatini ham taqdim etish, bizningcha, tom ma'noda mahalliy byudjetlarni barqaror daromad bazasi uchun zamonaviy bozor mexanzimlarini joriy etilishi bo'ladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 y., 3-4-son, 27-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2011 y.
2. Abduraxmonov O., Kushakayev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. -T.: Akademiya, 2005. – 180 b.; Alimardonov M.I. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga soliq tizimining ta'siri. – T.: 2003. – 233 b.; Vahobov A.V. va boshq.
- 3.T.Malikov, N.Haydarov. Byudjet daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA, 2007
- 4.M.M.Kamilov Bilvosita soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari.
- 5.O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 9 dekabrdagi "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" O'RQ-589-son Qonuni. (Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.12.2019 y., 03/19/589/4126-son) asosida muallif ishlamasasi.
- 6.Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2018. – B.25-26.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan
- 8.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi.<https://soliq.uz/>
- 9.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 noyabrdagi "Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig'i va yagona yer solig'i bo'yicha to'lash muddatini uzaytirish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" 951-son Qarori. Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2012 y., 40-son, 467-modda; Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2018 y., 09/18/384/1266-son

Xulosा

Respublikada davlat byudjeti, respublika va mahalliy byudjetlarning daromad manbalarining huquqiy asoslari yaratilgan. Lekin ushbu daromadlar mahalliy byudjetlar xarajat vakolatlari bilan bog'lanmagan;

Soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarini taqdim etish tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi;

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shaydigan mablag'lar yuridik shaxslar tomonidan ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ning turlarini ko'paytirish va raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq tadbirdilarga yo'naltirilishiga e'tibor qaratilgan;

Iqtisodiy salohiyati yuqori bo'limgan hududlarda mahalliy soliqlar byudjetning daromad qismini shakllantirish uchun yetarli emasligi aniqlandi. Ushbu yetishmovchilik yuqori turuvchi byudjetlardan moliyaviy yordamlar ajratish yo'li bilan tenglashtirish siyosati amalga oshiriladi;

Yevropa davlatlarida mahalliy byudjetlar mustaqilligi va resurs yetarlilagini ta'minlashning asosiy tamoyillari o'zini-o'zi boshqarish tizimi to'g'risidagi Yevropa xartiyasi bilan tartibga solinadi;

jismoney shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlari mahalliy byudjetga kelib tushadigan mazkur soliq tushumlari jami tartibga soluvchi daromadlarning 60 foizini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan ushbu soliq turidan tushumlarni byudjet tizimi byudjetlar o'ttasida taqsimlanishining yo'liga qo'yilishi maqsadga muvofiq. ushbu amaliyot rivojlangan davlatlarda byudjet amaliyotida mavjudligi aniqlandi;

kichik korxonalarining yagona ijtimoiy to'lovi ham tartibga soluvchi daromadlar hajmidagi ulushi 20-30 foizini tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib, kichik biznesni rivojlantrish ko'proq mahalliy davlat hokimiyati organlari manfaatlariga mos kelishidan kelib chiqib, ular ixtiyorida qoldirish taklif etildi.